

ASARLARDA MUSHTARAK “ONA” MAVZUSINI BADIY TALQINI

Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti,

O'zbek tili ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: adabiyotimizda ko'plab asarlar yaratilgan va ushbu maqolada asarlardagi mushtarak “ona” obrazini badiiy talqiniga bag'ishlangan. Tadqiqotimiz markazida, mashhur yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchining “Ogay ona” badiiy asarini olingan. Hamda ushbu asardagi ona obrazini tadqiq qilish bilan birgalikda, undagi didaktik pand-nasihat, axloqiy tomonlariga ham urg'u qaratilgan bo'lib, yozuvchining uslubi ham e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: ona obarzi, xarakteristika, didaktika, tip, yozuvchi uslubi, ijodkor tasvir mahorati.

Ona! Bu tushunchaga biz ko'pab maqolalarimizda ta'riflar berib o'tganmiz. Ushbu tushunchga takroran qaytishimizga sabab, yangidan yangi asarlar o'qib, uni talqin qilishimiz deb javob bersak to'g'riroq bo'ladi. Ya'ni, har bir yozuvchi o'zining ijod namunasini qog'ozga tushirar ekan, albatta unda ijodkorning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Birgina shu “Ona” obrazini shakllantirishda iste'dodli qalamkash ustalarimiz turli uslublardan foydalanishadi. Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan maqsadimiz ham ana shu bir mavzu yuzasidan turli ijodkorlarning o'ziga xos yo'sinda obraz tasvirlashi hamda bir obrazni turlicha talqin qilinishiga e'tibor qaratdik. Ona! Ona bo'lish! Onalik qilish! Albatta, bu tushunchalar ostida juda ham keng ma'no hamda mazmun yotadi. Ushbu tushunchalarni yaqqol ko'rsatib, o'zining asarida mohirona tasvirlab beradigan ijodkor ham taniqli yozuvchilarimizdan biri ustozimiz Ahmad Lutfiy Qozonchidir. Va uning boshqa asarlarga o'xshamagan va asar nomini ko'rganimizda ya'ni sarlavhasini o'qiganimizda o'zgacha bir boshqa ma'no bo'lsa kerak deya aytadigan “O'gay ona” asaridir. O'zimda ham asar nomini ko'rib, boshqacha fikrlagan edim ammo o'qib chiqqandan so'ng esa butunlay boshqa taassurot uyg'otdi menda. Keyin bu asar bo'yicha maqola yozmasam bo'lmas ekan degan qarorga keldim.

Unday bo'lsa boshida asar sarlavhasidan talqin qilishni boshlasak, aslida, ko'pchiligimizning ongimizda o'gay ona deganda qahri qattiq, bolalariga ya'ni o'gay bolalariga yomon munosabatda bo'luvchi ayollarni tushunamiz, bu qarash ham o'z isbotlari bilan to'g'ri albatta. Ammo talqin qilinayotgan asarimiz umuman bunday ma'noda emas.

Asar qahramonlari Fotima, Odilbek, Ismoil, Odila, Husayn, Xayriya va Saniha

hola va boshqalar. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan bosh qahramonlarimiz bu Fotima va Saniha obrazlaridir.

Bu ikki obrazga nazar tashlar ekanmiz, ikkisi ham avvalo ayol, ikkisi ham ona (o‘gay ona) ammo bularning o‘rtasida farq juda katta.

Sanihaga yuzlanadigan bo‘lsak, taqdirning taqozosiga ko‘ra, bir farzandi bor, insonga turmushga chiqadi. Ammo bir yetimning boshini silash o‘rniga, zug‘um o‘tkaza boshlaydi. Uning o‘gay o‘g‘li Ismoil edi. Ismoil endiga 5-6 yoshlar chama atrofida edi, u yoshlikdan ona mehridan mosivo bo‘lib, o‘sdi.

Fotima bo‘lsa Sanihaning aksi, Saniha unga dars bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi ya‘niki ikki farzandi bor Odilbekka turmushga chiqishga Ismoil sabab bo‘ldi desak hech adashmagan bo‘lamiz.

Fotima yoshlikdan tarbiyali, aqlli va ilm-farosatda tengi yoq qiz bo‘lib voyaga yetdi. Ota-onasiga bo‘lgan hurmati, oilasiga bo‘lgan muhabbati buning yaqqol dalilidir.

Inson bu hayotda yashar ekan, vaqtlar o‘tgan sayin hayoti davomida bo‘lgan voqea-hodisalarda to‘g‘ri xulosa chiqarib bilishi kerak. Xulosa to‘g‘ri chiqargan insonni esa hayotni o‘zi tarbiyalab, iymoni mustahkamlashga sabab bo‘ladi. Ismoilning hayoti va unga bo‘lgan Sanihaning munosabati uning kelgusi hayoti uchun katta dars bo‘ldi. Sanihaning Ismoilga munosabatini quidagi dialogdan ham bilib olishimiz mumkin.

“— Razil, yana bolani yig‘latding, hozir senga ko‘rsatib qo‘yaman! Yuqoridan ochilgan derazadan yosh qiz ovoz berdi:

— Sanixahola, Ismoilning aybi yo‘q. Bolao‘zi yiqildi. O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Sanihaxonim, uning bu aralashuvidan mamnun emasligini ta‘kidlagan ohangda javob berdi:

— Yaxshi qarasa yiqilarmidi, singlim? Ko‘r bo‘lgur, hech qaramaydi go‘dakka. So‘ng bolalarga o‘girildi. Yuqorqdagi qiz:

— Alloh haqqi, u aybdor emas! - deya bakirdi. Lekin Sanihaxonim quloq solmadi, kattasini birikki shapaloqlagach, kichigini quchog‘iga oldi:

— Kel qo‘zichog‘im, yagonam! So‘ng Ismoilga o‘girildi: Uyaltirma, ikki tarsaki nima degan gap? Naq oyog‘imning ostigaolib tepkildimku.... - deya o‘dag‘aylab, bolasini yetaklab uyi tomonga yo‘l oldi. Ismoilning nohaq jazolanishi o‘ynayotgan bolalarga tekin tomosha bo‘ldi. Ikki daqiqa davom etgan bu shafqatsiz voqea ularni tinchlantirdi, hatto dam oldilar”. [1.4]

Dialog (yunoncha:dialogos – suhbat) – nutq turi; ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqi. Dramada xarakterlar va voqealar rivojini ifodalashning asosiy vositasi; nasrda (ba‘zan nazmda) badiiy ifoda usuli. [2]

Biz oldingi maqolalarimizda ham diolog va manologlar xususida gaplashganmiz. Albatta, diologlar badiiy asarda qahramon xarakteristikasini ochib beradi. Yuqoridagi

diologni o'qigan kitobxonda ham qahramon xarakteristikasiga nisbatan tushuncha hosil bo'ladi. Ya'ni Sanihaning Ismoilga qilgan bu muomalasi, urishi, baqirishi yoxud urishib berishi Sanihani salbiy qahramon sifatida shakllantirgan. Fotima esa bu paytda halli voyaga yetmaganligiga qaramay mehribon, adolatparvar qiz edi. Ulg'ayib voyaga yetganda esa dinni yaxshi tushunadigan, soliha ayol bo'lib yetishadi.

“Otasidan yetarlicha diniy ma'lumot oldi. Alloh har narsani ko'rguvchi, eshitguvchi, bilguvchi ekanini, yaxshiyomon qilgan ishlari hususida uning huzurida bir kun xisob berajagi, bu ishlarni chap va o'ng yelkasidagi ikki kotib farishta yozib borajagini bilishi bilan ko'zlari yoshlandi. Shu kundan boshini o'radi, ko'pchilik orasida o'zini qanday odobli tutsa, yolg'iz qolganda ham shunga qattiq amal qildi. Ayollar to'planishgach, bemalol ochiq-sochiq o'tiraveradilar. Hatto Fotima yaxshi taniydigan adabli, tarbiyali bir nechta xotinlar ham shunday ish tutishdi. Dugonalari, uni ham boshini ochib, ro'molnni yechib o'tirishga qistashardi. U qabul qilmasdi.

— Bu yerda hech kim yo'q-ku, Fotima, kim ko'rib o'tiribdi?! Buncha talabchan bo'lmasang?!

— Alloh ko'radi, — deb javob berardi Fotima.

— Xo'p, sen o'raganing bilan sochingni Alloh ko'rmaydimi? — deya e'tiroz etdi dugonasi.

— Tabiiyki, ko'radi.

— Unda nechun bu taassub, mutaassiblik?! Nimadan buncha saqlanasan, Fotima?!

— Istaymanki, Alloh meni uyalishimga sabab bo'lgan holatda ko'rmasin. O'zi amr etgan, rozi bo'ladigan qiyofada ko'rsin” [1.9]

Ko'rinadiki, qahramonimiz tilidan chiqayotgan har bir so'z o'zining bebaho qiymatiga ega. Mana shu suhbatsdan so'ng hech bir kishi unga og'iz ocholmadi. Aksiga olib kim uni yoniga kelsa, yoki uni ko'rsa o'zini tuta biladigan, tartibli, nazokatli holda tuuradigan bo'ldi. Haqiqatda asarda Fotima go'zal hulq egasi sifatida gavdalantirilgan. Yillar o'tib, uni bu hislatlarini eshitgan, bilgan odamlar uni so'rab kela boshlaydi. Bir kuni so'raganlar orasida ikki farzandi yetim bo'lib qolgan Odilbek ham bor edi.

“ Odilbek bolalarining ahvolini biroz bo'lsada yaxshilash umidida ikkinchi bor uylanishga istar-istamas rozi bo'ldi. Odilbek namozxon, xushfe'l, xushbichim, fayzli bir inon edi” [1.10]

Shuncha insonlarga rad javobini berib kelayotgan Fotima Odilbekka turmushga chiqishga rozi bo'ldi. Negaki, ikki farzandni o'z farzandidek tarbiyalash niyatida edi.

Xuddi, shu yerda bosh qahramonimiz Fotimani o'ziga xos xarakteri namoyon bo'ladi. Va uning boshqa asar qahramonlariga o'xshamagan tarafi ham shunda. Qahramonimizning qarindoshlari qarorini o'zgartirishga kirishadi ammo Fotima bu qaroridan qaytmaydi. “Aslida Fotimaning ikki yetimi bo'lgan kishiga turmushga ishiga

sababham Ismoil edi. To‘g‘rirog‘i, Ismoil chekkan iztiroblarning uning ko‘nglida qoldirgan teran ta‘siri edi bu. Ikki yetimning qo‘nglini olish—ularni zolim ko‘liga tushishdan qutqarish edi, uning niyati” [1. 12]

Va u o‘z niyatiga yetdi ham. U Odilbekning ikki farzandiga: Husayn va Odilaga o‘z farzandidan ziyoda qaraydi. Ularni o‘gay ekanligini sezdimadi. Va shu sababli ham turmush o‘rtog‘ining muhabbatiga sabab bo‘ldi.

Uning qanchalar oilasiga mehr qo‘yganligini quidagi parchadan ham bilib olishqiyin emas.

“Bir kun Odilbek uyga qo‘lida bir qog‘oz xalta bilan qaytdi. O‘zini ochiq chexra bilan karshilagan xonimga uni uzatarkan;

— Qimmatli ustozimga hadyam bu, —dedi. Qog‘oz xalta ochildi. Go‘zal bir libos edi. Fotimaxonim erining yuziga boqib:

— Tashakkur. Ammo mening bolalarimga hadya qani? Men kiyib, ular shunday qoladtlarmi?

— Ularga ham bo‘ladi. Bir hafta o‘tsin, inshoolloh. Ularning ham ko‘ngillarini ko‘taraman.

— Buni olgan do‘kon egasi bilan do‘stligingiz bormi?

— Bor.

— Yaxshi, agar menga quloq solsangiz, buni ertaga eltib borib, o‘rniga bolalarimga ikki hira oling. Qarang, kunlar ham soviy boshladi. Ham ko‘ngillarini olasiz, sovuq yemaydilar. Ularni xursand, shod etsangiz, men sevinaman. O‘zim kiyganimdan ziyodaroq quvonaman” [1.20]

Fotimani ushbu gaplaridan keyin Odilbekning Fotimaga nisbatan yana hurmati oshdi. Yozuvchi qahramonimizni shu qadar chiroyli tasvirladilarki, bunday personaj, obrazlarni ko‘rgan, o‘qigan insonda o‘zgacha taassurot uyg‘otadi hamda tarbiyaviy jihatdan insonni ulg‘aytiradi. Quidagi ko‘rsatiladigan parchda ham shular jumalasiidan;

“— Endi mening hadyamga navbat keldi. Shu oqshomdan e‘tiboran har oqshom uch bor «Ixlos» va bir marotaba “Fotiha» surasini, har juma oqshomi Taborikni o‘qib, marhuma qarindoshimga bag‘ishlaysiz. Bir kamzul bir kun sevintirar, bu hadya esa har kun.

— Sening qarindoshing qlganmi?

— Ha. Bir yil avval.

— Bu haqida gapirmaganding.

— Endi gapiraman. Mayli, o‘qiyman, lekin ismi nima qarindoshingni? Fotima g‘oyat sokin ovozda dedi:

— Xayriya. Bu ismni eshitishi bilan Odilbekning rangi o‘zgardi. Hayajonini bildirmaslik uchun ming‘irladi:

— Xayriyami?

— Ha, Xayriya. Nega g‘alati bo‘lib ketdingiz?

— Yo‘q, g‘alati bo‘lmadim.

— Men Xayriya deyishim bilan dovdiringiz. Nega? Odilbek boshini quyi soldi:

— Chunki vafot etgan xotimimning ismi ham Xayriya edi Fotimaxonim. Qistamadi. Bu gapni qo‘yib, sening qarindoshingga o‘taylik.

— Mening qarindoshim vafot etgan xotiningiz Xayriyadir. Haqqiga tilovat qilishingizni istagan qarindoshim aynan u. Odilbekning ko‘zlari yoshlandi. Boshini egdi:

— Ammo, men uni unutishga harakat qilyapman.

— Nega? Axloqsizmidi? Odilbek tezlik bilan e‘tiroz etdi:

— Yo‘q, aslo.

— Yaxshi ko‘rmasmidingiz? Sevmasmidingiz? Odilbek jon joyidan ushlangandi. Sevmoq — ne degani? Telbalarcha sevardi” [1.22]

Fotima shunchalar samimiy, ko‘ngli toza qiz ediki, uning bu qilgan ishi Odilbekni chindan hayratga solgandi. Keltirilgan jumlada, qahramonlarning boshqa bir asarlarda keltirilmagan tomonlari desak bo‘ladi. Bu haqiqiy hayotga misol qilib olinsa, bunday ayollarni topish juda mushkul ish.

Xulosa qilib aytganda, asarda keltirilgan ogay ona qiyofasida tasvirlangan badiiy obrazlar, ikki xil xarakter, ikki xil tipda gavdalantirilgan. Bu qahramonlar orqali ijodkor, har bir inson kelajak taqdirini qay uslubda o‘zgartirish o‘z qo‘lidaligiga ishora deb ham aytishimiz mumkin. Negaki, qahramonlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdorlikda namoyon bo‘lishi, o‘qiyotgan kitobxonda yaxshi-yu yomonni, oq-u qorani anglashda, didaktik tomonlama tarbiyalanishda katta dars bo‘ladi. Umuman olganda, yozuvchining ham niyati shu emasmi?! Shuni yana aytib o‘tish joizki, ijodkorlar orasida bir mavzuni turlicha olib chiqishlarini guvohimiz. Bu esa yuzuvchi uslubiga xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Lutfiy Qozonchi “O‘gay ona”. BOOK MEDIA NASHR. Toshkent-2019
2. O‘z.ME. Birinchi Jild. Toshkent. 2000-yil
3. O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 14-son 2022-yil.